O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____
B.A.Xolikov

2024-yil “____” _____
Ro‘yxatga olindi: №BD-60230400-1.05
2024 yil “____” _____

XORIJIY TIL
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

Ta’lim sohasi: 230 000 – Tillar

Ta’lim yo‘nalishlari: 60230400 – Kompyuter lingvistikasi

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
XT13-410	2025-2026	3-4	10

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xorijiy til	120	180	300

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga o‘rganilayotgan xorijiy tilni kasbiy faoliyatda amaliy qo‘llay olish tamoyillariga amal qilgan holda integrallashgan yondashuv asosida o‘rgatish, o‘rganilayotgan xorijiy tilda o‘z fikrini bildira olish va ma’lum mavzularda so‘zlashishlarini ta’minlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni nutq vaziyatlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanishga o‘rgatish, nutq ko‘nikmalarini fonetik, grammatik, leksik, stilistik va tipologik jihatdan to‘laqonli shakllantirish, tilni dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka nisbatan o‘rganilayotgan xorijiy tilda o‘z munosabatlarini bildira olish darajasida o‘rgatishdan iborat.

II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga xorijiy tillarni o‘rganishning barcha kompetensiyalari kiradi:

- tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish talabalarga integrallashgan holda o‘qitiladi. Mazkur dasturda umumiy mavzular keltirilgan bo‘lib, mavzular semestrlar kesimida sillabusda batafsil yoritiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish va talabalarning tilni o‘zlashtirganliklarini baholashda til egallashning xalqaro e’tirof etilgan mezonlariga amal qilinadi:

Tinglab tushunish kompetensiyasi bo‘yicha:

A2 daraja - o‘ziga tanish mavzularga (masalan, sodda bayon qilingan oila, xarid, mahalliy hududlar, yangiliklar, texnologiya, ish) oid ko‘p ishlatiladigan so‘z va iboralarni shuningdek, qisqa, aniq, sodda xabar va e’lonlarning asosiy mazmunini tushuna olishi kerak.

B1 daraja – o‘z sohasiga tegishli bo‘lgan so’zlarni tushuna olish, ijtimoiy sohaga tegishli bo’lgan mavzular bo‘yicha (kompyuter texnalogiyasi, ta’lim muassasasi, dasturlar, hordiq va b.) aniq aytilgan gapning asosiy mazmunini anglay olishi, bunda asosan matndagi muhim so‘zlarga ahamiyat qaratgan holda butun gap mazmunini tushunishi nazarda tutiladi.

O‘qish kompetensiyasi bo‘yicha:

A2 daraja – juda qisqa, sodda matnlarni (yangi gadgetlar haqida qisqa informatsiyalar, dialoglar, eslatmalar, ko‘rsatmalar, ma’lum mavzuga oid qisqa tushunchalar) o‘qib tushuna olishi, kundalik hayotga taalluqli (qisqa hikoyalar, reklama, ob-havo malumotlari) matnlardan o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni topa olishi, qisqa va sodda yozilgan matnlarni yangi so‘zlar orqali o‘qib tushunishi ko‘zda tutiladi.

B1 daraja – kompyuter va yangi avlod texnalogiyasiga tegishli va ijtimoiy sohaga taalluqli so‘zlar asosida tuzilgan matnlarni tushunish talaba uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi, matn yoki izohlarda bayon etilgan voqea-hodisalar, malumotlar, programmalar haqida keltirilgan bayonnomalarni tushunishi lozim.

Yozish kompetensiyasi bo‘yicha:

A2 daraja - qisqa va sodda qaydlarni yoza olishi, masalan, sohaga tegishli qisqa tushunchalarni, do‘stiga sodda gaplar asosida malumotlarni yoza olishi lozim.

B1 daraja – tanish yoki talabani qiziqtirgan yangi texnologiyalar va dasturlar, programmalar va boshqa mavzularda sodda gaplar bilan mazmunli matnlar yoza olishi, biron dasturni o’z fikri va o’rgangan yangi so’zlar asosida hikoya qilib yoza olishi yoki shu dastur va boshqa masalalar bo’yicha do’stiga xat yoza olishi kerak.

Gapirish (dialog, monolog) kompetensiyasi bo‘yicha:

A2 daraja (dialog) – yangi yaratilgan texnalogiyalar va yangiliklarga taalluqli murakkab bo‘lmagan va tanish mavzularda muloqotga kirisha olishi, ba’zida yaxshi tushuna olmasada muloqotni davom ettirish uchun o‘ziga yoqqan va yoqmagan narsalar haqida gapira olishi, istaklarini sodda tilda bayon eta olishi kerak.

Monolog - oila, kundalik hayot, kasbiy faoliyati, turmush tarzi, ta’lim olgan muassasalari va kasbini ta’riflash uchun so‘z va iboralar qisqa muloqotida ishlata olishi, ular yordamida gapira olishi lozim.

B1 daraja (dialog) – talaba o‘rganayotgan chet tilida xuddi ona tilida gaplashgandek gaplasha oladigan kishilar bilan kundalik mavzularda suhbat qura olishi, oila, jahonda yaratilayotgan yangi gadgetlar va programmalar haqidagi yangiliklar, kasbiy faoliyat kabi mavzulardagi suhbatlarga osonlikcha qo‘shila olishi hamda o‘z fikr-mulohaza, his-tuyg‘u va taassurotlarini bildira oladigan bo’lishi lozim.

Monolog - talaba sodda gaplar bilan yangi dasturlash haqida va yangi texnika davrida kompyuterning tasirini o’z fikrlari mulohazalari orqali erkin gapirib berishga harakat qilishi, taassurotlarini ifoda eta olishi lozim.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Ikkinchi chet tilidan barcha mashg‘ulotlar amaliy shaklda, interaktiv metodlarasosida o‘tkaziladi. Tilni aspektlar kesimida o‘rgatishda jumladan,

➢ **Grammatikani o‘rgatishda**

- grammatikani o‘qitish (grammatika va ma’no; grammatika va funksiya);

- grammatikani o‘qitishga deduktiv va induktiv yondashuv;
- grammatikani kontekst orqali o‘rgatish;
- lingvistik intuitsiya;
- til hodisalari;
- grammatik lug‘atlardan foydalanish;
- grammatik vazifalarni tahlil qilish;
- grammatik mashq, topshiriq, vazifa, testlarni tuzish.

➢ **Leksikani o‘qitishda**

- so‘z va uning paydo bo‘lishi;
- leksikani kontekstda o‘qitish;
- leksik birliklar /iboralar/birikmalarni o‘qitish;
- yangi leksikani o‘rgatish (rasm, realiya, qo‘shiq, multimedia va h.k.dan foydalangan holda);
- pedagogik maqsadlarda internet ma’lumotlaridan foydalanish;
- talabalarning leksikani o‘rganish strategiyalarini rivojlantirish;
- leksik vazifalarni baholash;
- leksik vazifa, topshiriq va testlar tuzishga alohida e’tibor qaratiladi.

Tilni o‘qitish jarayonida ijtimoiy hayot va jamiyatning turli sohalariga oid dolzarb mavzularni qamrab olish ko‘zda tutiladi. Jumladan quyidagi mavzularni o‘rganish, muhokama va tahlil qilish tavsiya etiladi:

- Tanishuv.
- Oila.
- Turar joy.
- Ovqatlanish, milliy taomlar.
- Sog’lom turmush tarzi.
- Sport.
- Ekologiya.
- Ish va dam olish kunlari.
- Xarid qilish.
- Kiyinish madaniyati.
- Urf-odatlar.
- Til o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyati
- Mening universitetim
- Mening kasbim.
- Madaniy hordiq.
- Yil fasllari.
- Mening qiziqishlarim.
- Telefonda suhbat.
- Sayohat.
- Transport.
- Kashfiyotlar.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning iqtisodi.

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning davlat tizimi.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning ta’lim tizimi.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning geografik joylashuvi, maydoni va aholisi.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning diqqatga sazovor joylari.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning milliy ramzlari.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning buyuk siymolari.
- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy- siyosiy va madaniy aloqalari.
- Davrning eng aktual muammolari va ularning yechimi: globallashuv va integratsiya; terrorizm; odam savdosi; giyohvandlik va uning oqibatlari; ishsizlik; ekologiya va salomatlik.
- Xalqaro hamkorlik: ijtimoiy-siyosiy munosabatlar; madaniy-ma’rifiy munosabatlar; xalqaro turizm va uni rivojlantirish kontseptsiyasi.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar. O‘qitish metodikasi amaliy vazifalar, dolzarb maqolalar muhokamasi, turli janrdagi matnlarni tahlil qilish, internet matnlari bilan ishlash, o‘qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini baholovchi testlar va mustaqil o‘qishga yo‘naltirilishi lozim. Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o‘tilishi, shu jumladan, darslarda videomahsulotlardan, xususan, “Ibrat farzandlari” platformasidan keng foydalanish, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ilmiy-texnik taraqqiyot va uning informatsion texnologiyalar sohasidagi yutuqlari.

2. Axborotlashgan jamiyatning ijobiy va salbiy tomonlari

3. 3. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlarda kompyuterlashishning jamiyatga ta‘siri.

4. Shaxsni rivojlantirishda oliy ta’limning roli: oliy ta’lim darajalari, kvalifikatsiya, sertifikat va diplom.

5. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlarda talabalar hayoti.

6. Zamonaviy dunyoda yangi texnologiya va Internetning o‘rni.

7. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning milliy urf-odatlari, an’analari,bayramlari.

8. Sog‘lom turmush tarzi: sport va fitnes, qishki va yozgi sport turlari.

9. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlarda oilaning jamiyatdagi o‘rni.

10. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish: xalqaro ekologik harakatlar va tashkilotlar.

	11. Xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO va b.) va ularning global muammolarni hal etishdagi o‘rni. **11**. XXI asr informatsion texnologiyalari rivojining asosiy yo‘nalishlari. **12**. Xalqaro turizm: ommabop sayyohlik yo‘nalishlari **13**. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida to’g’ri ovqatlanish tartibi: sog’lom va nosog’lom ovqatlar. **14**. Kompyuter asrida yaratilgan va o’tgan asr kinolar orasidagi farqni taqqoslash. **15**. XXI asrda kompyuterning tasiri va uning kelajakdagi o’rni. Xorijiy tilni o‘qitish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta’lim olishga rag‘batlantiriladi va ulardan o‘z fikrini o‘rganilayotgan chet tilida bayon qilish talab qilinadi. Talabadan fan bo‘yicha mustaqil o‘rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o‘rgata olishi talab etiladi. **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: – o‘rganilayotgan xorijiy tilning fonetik va grammatik qonuniyatlari; – o‘rganilayotgan chet tilida og‘zaki va yozma nutq amaliyoti; – o‘rganilayotgan xorijiy tilni xalqaro va milliy standartlarga ko‘ra B1 darajada o‘zlashtirish; – turli til materiallari bilan ishlash usullari to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi;*** – o‘z fikr va mulohazalarini lingvistik bilimlarga tayangan holda mantiqiy bayon etishni; – xorijiy tildagi og‘zaki va yozma shakldagi ma’lumotlarni tushunish strategiyalarini; – xorijiy tilning fonetik va grammatik strukturalariga oid bazaviy va kommunikativ jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan til birliklari va qonuniyatlarini nutq jarayonida qo‘llay olishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
3.	– xorijiy tilda chop etilgan turli materiallar va axborot beruvchi boshqa vositalardan olingan autentik til materiallarini tushunish va tahlil qilish; – maxsus nomalar, biznes xatlar, elektron xatlar yozish; – o‘rganilayotgan tilda so‘zlashuvchilar bilan muloqotga kirishish; – o‘z sohasiga oid mavzularda intervyuda qatnasha olish, rasmiy savol-javoblardaishtirok etish, ma’lum mavzu bo‘yicha taqdimot qila olish ***malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** Fanni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodi va chet tilini o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg‘ulotlarda darslik va o‘quv qo‘llanmalardan tashqari

	autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo‘llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyiha, rolli o‘yin, debatlar, prezentatsiya metodlaridan keng foydalaniladi.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Talaba til egallashning xalqaro e’tirof etilgan darajalariga muvofiq o‘rganilayotgan xorijiy tilni talab etilgan darajada (A2-B1) bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borishi shart. Jumladan, belgilangan darajada auditoriyada bajariladigan mashq va topshiriqlar, portfolio, kundalik, loyihalar, intervyu va rolli o‘yinlarda faol ishtirok etishi, video va audio materiallarni tushunib tahlil qilishi, muhokamalar jarayonida xorijiy tildan unumli foydalana olishi, oraliq va yakuniy nazoratda matnga asoslangan vazifalardan iborat turli test va topshiriqlarni bajarishi, mantiqiy savollarga mustaqil ravishda xorijiy tilda javob bera olishi, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi, mustaqil ta’lim uchun berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi lozim. Xorijiy til bo‘yicha egallangan bilimlarni nazorat qilishda til bo‘yicha barcha kompetensiyalar o‘zlashtirilganligi inobatga olinadi.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. Stuart Redman. English vocabulary in use. Fourth edition. Cambridge university Press 2008 2. Raymond Murphy., Essential grammar in use. (blue) 1. Beijing language and Culture University Press published in Vietnam, 2014. 3. Li Yan Bin, Basic IELTS listening. Cambridge university Press 2014. 4. Casey Malarcher, Andrea Janzen. Reading Challenge 2. Second edition. Compass publishing, 2010 5. English for a life. Pre-intermediate. Tom Hutchison. Oxford university Press 2017. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Swan M, Walter C. The Good Grammar Book, Destination B1 Grammar and Vocabulary., Oxford University Press. 2003 2. Macmillan English. Dictionary for advanced learners. International Student Edition. UK. 2012 3. Paul Nation. 4000 Essential English words. Compass Publishing 2009. 4. Cambridge English Skills Real Listening and Speaking 2 with Answers and Audio CD: Level 1-2 5. John and Liz soars. “New headway” (All levels) Oxford university. 6. Malcolm Mann. Destination (full set) Macmillan Education, UK-2013.

	Axborot manbalari 1. https://ibratfarzandlari.uz 2. https://newsela.com/ 3. https://rewordify.com/index.php 4. https://www.writeabout.com/
7.	**Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil "____" _____ dagi "____" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** N.G'.Usmanova- SamDChTI, "Ikkinchi chet tillar" kafedrasi stajor o'qituvchisi Sh.B.Razzoqova- SamDChTI, "Ikkinchi chet tillar" kafedrasi stajor o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** G.H.Obruyeva-SamDChTI, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi mudiri,f.f.n. dotsent T.S.Imoilov – O'zDJTU, ingliz tili-3 fakulteti dekani, f.f.f. d (PhD) dotsent